

## ZAMONAVIY JAMIYATDA AYOLNING IKKI ROLI: IJTIMOIIY FAOLIYAT VA OILAVIY MAS'ULIYAT

**Kamolova Sarvinoz O'rol qizi**

*Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar"*

*yo'nalishi, 3-kurs talabasi*

*kamolovasarvinoz33@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ayolning ikki asosiy roli — ijtimoiy faoliyat va oilaviy mas'uliyatning o'zaro uyg'unligi, ularni muvofiqlashtirish zarurati hamda bu ikki yo'nalishda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilinadi. Ijtimoiy hayotda faollashayotgan ayollarning oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishdagi o'rni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi tutgan mavqei, gender yondashuv va ijtimoiy institutlarning bu boradagi roli ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy faoliyat, oilaviy mas'uliyat, gender tenglik, zamonaviy jamiyat, ayollar huquqi, jamiyat taraqqiyoti, madaniy qadriyatlar, oila instituti.

*Ayollarning ta'lim olishlariga ko'nmaydilar.*

*Lekin xotinlari kasal bo'lib qolsa, ayol shifokor qidiradilar.*

**Doktor Ali Virdiy**

### KIRISH

Ilm-fan — har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. O'sha kuch ayollarimizda aks etgan desak hech adashmagan bo'lamiz.

Tariximizga bir nazar solsak, qanchadan qancha buyuk ishlar boshida To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollar turganiga guvoh bo'lamiz. Ular o'z jasorati, aql-idroki va mardligi bilan tarixga o'z ismlarini muhrlab qo'ygan. Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o'ziyoq bugungi kun xotin-qizlarga g'urur va sharaf tuyg'ularini his qilishga sabab bo'la oladi. Tobora rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatimizda xotin-qizlarning o'rni, ularning haq-huquq hamda fikrlari qanchalik muhim. Nima deb o'ylaysiz? Ayol ojiza, u uyda o'tirishi kerak, bola tarbiya qilishi, turmush o'rtog'i, qaynona-qaynotasini ko'nglini olishi, tinimsiz uy ishlari bilan band bo'lishi kerak degan turli qarashlar bugungi hayotimizni qamrab olgani barchaga ma'lum. Xo'sh chindan ayol faqat shu ishlar bilan mashg'ul bo'lishi kerakmi? Agar javobingiz ha bo'lsa, nima uchun unda biz bu xilqatni, "mo'jiza" deb ataymiz. Nahot mo'jizaga nisbatan bunchalik mas'uliyatli vazifalari ojiz yelkasiga yuklab qo'yishga uyalmasak. Fikrimizcha yoq. Ayol ham o'qishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, jamiyatda o'zining mustaqil fikrini qo'rqmasdan ayta olishi lozim.

Islomda ayollarning ilm olishiga hech qanday ta'qiq qo'yilmagan. U o'qishi, diniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashi kerak. Sababi, u kelajak avlodni dunyoga keltiradi, tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ko'pgina tor fikrli kimsalar borki, ayol yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, uyda o'tirishga mahkum degan notog'ri aqidaga tayanib qolgan. To'g'i ayol uchun eng oliy o'rinda oila turishi zarur. Chunki oila muqaddas. Biroq faqat uyda o'tirsa, uy yumushlari bilan band bo'lsa, u keyin dunyoga keltirajak farzandiga qanday tarbiya beradi? O'zida hech qanday ilm yo'q bo'lsa. Keyin bizning qo'shtirnoq ichidagi aqlli erkaklarimiz nolishni boshlashadi. Hech narsani bilmaydi, aqli yetmaydi, tushunchasi yoq va hokazolar. Mana nima uchun u o'qishi, ilm olishi kerak. Kelajak avlodni munosib tarbiyalash uchun, o'z fikriga ega bo'lishi uchun. Aqlli ayol oilani ham, ilm olishni ham, ishlashni ham to'g'ri tartiblay hamda eplay oladi, agar turmush o'rtog'i ham aqlli bo'lsa. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq ishlashar ekan, xolbuki, biror tashkilotda ishlashmasalar ham. Bir kunda ayollar o'rtacha 12 ming qadam bosishsa, erkaklar 9 ming qadam bosishar ekan. Bundan ko'rinadiki, ayollar ko'proq energiya sarflashadi.

### ASOSIY QISM

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo'lgan e'tibor yuksaldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiysiyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun kerakli bo'lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2- fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida PF-5325- sonli Farmoni e'lon qilindi[1]. Mazkur Farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning o'quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi parlamentining 32 foizini ayollar tashkil etadi. Bu esa ularning qaror qabul qilishdagi real ishtirokini anglatadi. Shu bilan birga, ayollar jamiyatdagi muammolarni hal qilishda, nodavlat tashkilotlar faoliyatida, volontyorlikda ham faol qatnashmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ayolning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va roli masalasi sotsiologiya, gender tadqiqotlari, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik hamda ijtimoiy falsafa kabi fanlar kesimida o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Mavzu bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

Abdulla Qahhor asarlarida ayollar obrazi alohida o‘rin tutadi. Adibning qator hikoyalarida, “Sinchalak”, “Sarob” va “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlarida, “Shohi so‘zana”, “To-butdan tovush” kabi dramalarida ayollar asosiy qahramonlar qatorida ko‘rinadi. Bu asarlarda adibning ayollarga ehtiromi yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Abdulla Qahhorning asarlari, muayyan ma’noda, o‘zbek ayoli bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning badiiy manzaralari kabi ko‘rinadi.

### MUHOKAMA

BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so‘zlagan nutqi hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo‘ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish zarurligi qayd etilganligi bilan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, O‘zbekistonimiz milliy siyosati markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta‘minlashdan iborat. Mamlakatimizda gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi. Ayollar va voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilindi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni himoyalash, manfaatlarini ta‘minlashning ilgari misli ko‘rilmagan yangicha tizimi yaratildi. Bu jihatlar xotin-qizlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olinishi, gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy muhofazasi, opa-singillarimizning xizmat pillapoyalaridan yuqorilinishi, tadbirkorligi, ilg‘or g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga doir amaliy tashabbuslar bilan bevosita bog‘liqdir.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi aholi bandligi bilan o‘lchanar ekan, bu jarayonda ayollar bandligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ammo bu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyodagi ijtimoiy holatni yaxshi deb bo‘lmaydi. Ya‘ni, dunyoda mehnat munosabatlarida ishtirok etayotgan 40 foiz ayol turli sabablarga ko‘ra ijtimoiy himoyaga ega emas. Bu global muammoning yechimini topish jahon hamjamiyati oldidagi dolzarb vazifadir. Shu bois Prezidentimiz O‘zbekiston “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanligini ta‘kidlab, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda

Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif etdi. Tan olish kerak, O'zbekiston bu borada katta tajriba to'plagan. Ayniqsa, 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda gender tenglikni ta'minlash, xotin qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq muhim qoidalar o'z aksini topdi.

### NATIJA

Xalqimizda "Kengashli to'y tarqamas", degan hikmatli naql bor. Bugun mamlatimizda xotin-qizlar muammolarini hal etishda ham kengashib ish ko'rish tamoyiliga amal qilinmoqda. Gap shundaki, endi mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha mehnat jamoalarida xotin-qizlar muammolariga samarali yechim topish uchun "Ayollar kengashlari" tuziladi.

Bu tizim ham hayotiy ehtiyoj tufayli ishlab chiqilgan. Boisi, har qanday mehnat jamoasida turli ko'rinishdagi muammolar uchrashi tabiiy. Ayniqsa, ayollarimiz o'z muammolarini ochiq aytishga istihola qiladi. "Ayollar kengashlari" ana shunday muammolarni yechishga, bir so'z bilan aytganda, ayollarimizni har tomon-lama qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish maqsa-dida Prezidentimiz joriy yil 1-mart kuni "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Ushbu muhim hujjat bilan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, joylarda esa hududiy komissiyalar tashkil etildi. Farmonda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi — Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

**Xulosa** qilib aytganda, Zamonaviy jamiyatda ayol ikki muhim vazifani — **ijtimoiy faol ishtirokchi** va **oilaviy qadriyatlar himoyachisi** sifatida muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Bu ikki rol o'zaro raqobat emas, balki uyg'unlikda mavjud bo'lishi mumkin. "Agar Alloh taolo ayolni erkakning bekasi qilib qo'yganida, uni boshidan, agar qul bo'lganida, oyog'idan yaratgan bo'lar edi. Biroq, uni do'st qilib erkakka teng qilib qo'ygani uchun uni qovurg'adan yaratdi" – deydi **Avreli Avgustin**. Asosiysi, ayolga yetarli sharoit, erkinlik va ijtimoiy-madaniy qo'llab-quvvatlash taqdim etilsa, u har ikki sohada ham muvaffaqiyatga erisha oladi. Davlat siyosatining, ijtimoiy institutlarning, va erkaklarning ham bu boradagi yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. «Informatsion texnologiyalar sohasi rivojida xotin-qizlarning o'rni» nomli ilmiy-amaliy konferensiyasi. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)
2. Yangi O'zbekiston jamiyatida ayollarning o'rni Ziyodaxon To'g'onboyeva
3. <https://refseek.com>
4. <https://yuz.uz/uz/news/mustahkam-oila-faol-xotin-qizlar-jamiyat-farovonligini-belgilaydi>
5. <https://parliament.gov.uz/news/ayollarning-jamiyatdagi-rolini-oshirish-ustuvor-vazifa>